

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XO‘JAYEVA SHOIRAXON BAXTIYOR QIZI

ALISHER NAVOIYNING “NAZM UL-JAVOHIR” ASARI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

UDK: 821.512.133 (092 Navoiy)

UDK: 891.322

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Philology sciences**

Xo'jayeva Shoiraxon Baxtiyor qizi

Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari poetikasi.....3

Khujaeva Shoirakhon Bakhtiyor kizi

The poetics of Alisher Navoi's work "Nazm ul-javohir"29

Хужаева Шоирахон Бахтиёр кизи

Поэтика произведения Алишера Навои "Назм ул-джавахир"55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XO‘JAYEVA SHOIRAXON BAXTIYOR QIZI

ALISHER NAVOIYNING “NAZM UL-JAVOHIR” ASARI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy ijod namunasining adabiy-estetik mohiyati va tabiatini asar muallifining dunyoqarashini shakllantirgan tarixiy-madaniy omillar kontekstida tekshirish muhim metodologik tamoyillardan sanaladi. Xususan, mumtoz adabiyot tadqiqiga yo'naltirilgan izlanishlarda asar poetikasi bilan bog'liq masalalarni muayyan tarixiy ehtiyoj, vorisiylik, intertekstual aloqa kabi omillarni e'tiborga olgan holda o'rganish globallashtirgan ilmiy-nazariy tafakkurga xos mezonlardandir. Shu nuqtai nazardan, dunyo tamadduni qiyofasini yaratishga alohida ulush qo'shgan, o'z adabiyoti doirasida millat fenomeni maqomiga ko'tarilgan mutafakkir adiblar ijodining mazmun-mohiyati va badiiyatini nazariy jihatdan takomillashib borayotgan metodlar, yangicha tahlil va talqin usullari asosida o'rganish salmoqli ilmiy manfaat va natijalar beradi.

Dunyo adabiyotshunosligining adabiy hodisalarni tarixiy poetika nuqtai nazaridan diaxronik aspektida tahlilga tortish sohasidagi ilg'or tajribalarini milliy adabiyotga, xususan, mumtoz adabiyotimizning oliy namunasi bo'lgan Alisher Navoiy asarlari tadqiqiga nisbatan tadbiiq etish muhim zaruratdir.

Milliy istiqlol natijasida barcha sohalarda bo'lgani kabi navoiyshunoslik jabhasida ham yangi-yangi imkoniyatlar eshigi ochildi. Xususan, buyuk mutafakkirning lirikasi, "Xamsa" dostonlari, ilmiy risolalari, diniy-tasavvufiy, ma'rifiy-ta'limiy va yodnoma asarlari muallif dunyoqarashining asoslaridan kelib chiqib tadqiq qilina boshladi. "Jonajon Vatanimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yib, yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda"¹. Alisher Navoiy asarlarining tarixiy-funksional imkoniyatlarini, badiiy ta'sirchanlik kuchini, ma'rifiy-tarbiyaviy qudratini yangi zamon ehtiyojlari bilan bog'liq holda kashf etish bugungi kun navoiyshunoslari qarshisidagi ustuvor vazifadir. O'zining har bir asarini borliq va inson haqidagi qarashlarining yuksak poetik tajassumi sifatida yaratgan Alisher Navoiy ijodiyotini uning g'oyaviy zaminida turuvchi islomiy-irfoniy qarashlar bilan vobastalikda o'rganish muhim ilmiy haqiqatlarga yo'llaydi. Zero, mutafakkir adib badiiy ijodni anglangan ilohiy haqiqatlar orqali o'quvchiga ma'naviy-estetik ta'sir ko'rsatish faoliyati deb bilgan va bu qarashni o'zi uchun ijodiy kredo darajasiga ko'targan. Bu fikrlar Navoiyning "Nukta su yanglig' eritur toshni, Topsa haqiqat o'tidin choshni" degan adabiy-estetik tamoyili asosida yuzaga kelgan "Nazm ul-javohir" asariga ham to'lig'icha daxldordir. Mazkur asarni musulmon Sharqi adabiyotidagi Hazrat Ali hikmatlarini badiiylashtirish an'anasining turkiy she'riyatdagi ilk namunasi, ayni paytda, Navoiyning komil inson haqidagi konseptual qarashlarini to'ldiruvchi badiiy voqe'lik sifatida tahlilga tortib, uning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 19 oktyabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4865-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5054929https://lex.uz/docs/5054929>

ijodiy tarixini, ruboiy janri tadrijidagi o‘rnini, poetik o‘ziga xosliklarini tadqiq etish dissertatsiya mavzusining zamonaviy adabiyotshunoslik uchun ahamiyatini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. “Nazm ul-javohir” haqida ma‘lumot beruvchi ilk manba Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridir. Unda asarning yaratilish tarixiga doir muhim ma‘lumotlar uchraydi².

Jahon adabiyotshunosligida bir qator olimlar Navoiy adabiy merosini tadqiq etish orqali “Nazm ul-javohir”ga ham ma‘lum darajada munosabat bildirganlar. Jumladan, 1861-yil Istanbulda nashr etilgan Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining so‘zboshisi o‘rnida Fransiya elchixonasining tarjimoni M.Belenning shoir va uning ijodi haqida 1860-yil “Azia” jurnalida bosilib chiqqan maqolasi keltiriladi. Bunda Belen Navoiyning boshqa asarlari qatori “Nazm ul-javohir” to‘g‘risida ham to‘xtalib, asarning umumiy tabiati, yozilish sanasi, kimga bag‘ishlangani haqida qisqacha ma‘lumot beradi³. Shu bilan birga, Sharq adabiyoti tarixi bo‘yicha maxsus izlanishlar olib borgan Ye.E.Bertels, arab she‘riyatini tadqiq etgan I.Yu.Krachkovskiy, I.M.Filshtinskiy, B.Ya.Shidfar, K.T.Osipova, N.A.Akilova, turk olimlaridan Yusuf Altinişik, Syed Arif Ahmadoglu, Alican Güzel kabilarning ishlarida “Nazm ul-javohir” haqida fikrlar bayon qilingan⁴.

² Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – Б.50.

³ Bu haqida qarang: Navoiy va adabiy taʼsir masalalari. Tuзуvchi va masʼul muharrirlar С.Ғаниева ва А.Абдуғафуров. – Тошкент: Ған, 1968. – Б.344.

⁴ Qarang: Бертельс Е.Э. Избранные труды. Т.3. Наваи и Джами. – М.: Наука, 1965; Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. Т.2. – М.: Наука, 1956. – 702 с.; Фильштинский И.М. Арабская классическая литература. – М.: Наука. 1965. – 300 с.; Шу муаллиф. История арабской литературы. V – начало X века. – М.: Главная редакция восточной литературы. 1985. – 523 с.; Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (VI–XII вв.). – М.: Наука. 1974. – 252 с.; Yusuf Altinişik. Ali Şir Nevayî'de tasavvuf. – Şanlıurfa: Harran Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü. 2002. – 263 s.; Syed Arif Ahmadoglu. Ali Şir Nevayî'nin kelâmî görüşleri. – Konya: Necmettin Erbakan Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü / Temel İslam Bilimleri Ana Bilim Dalı / Kelam Bilim Dalı. 2016. – 191 s.; Alican Güzel. Ali Şir Nevayî'nin Farsça Divan'ında ve Gara'ibü's-Sigar adlı divanında bulunan rubâilerinin mukayesesi. / Denizli: Pamukkale Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü / Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı / Eski Türk Edebiyatı Bilim Dalı. 2021. – 252 s.

“Nazm ul-javohir” Alisher Navoiyning axloqiy-didaktik ruhdagi asarlari ichida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shu sababli mazkur asarga nisbatan ko‘plab o‘zbek adabiyotshunoslari munosabatlarini bildirganlar. Jumladan, M.Shayxzoda, Oybek, I.Husanxo‘jayev, T.G‘afurjonova, A.Qayumov, I.Haqqulov, H.Qudratullayev, K.Quramboyev, Yo.Is‘hoqov, A.Hayitmetov, S.G‘aniyeva, H.Boltaboyev, A.Hojiahmedov, H.Jo‘rayev, N.Komilov, E.Ochilov, M.Mahmud, D.Yusupova, M.Sariboyeva, O.Madayev, N.Jabborov, Sh.Sirojiddinov, O.Davlatovlarning tadqiqotlarida “Nazm ul-javohir” haqida salmoqli fikrlar ilgari surilgan⁵.

Ma‘rifat Rajabovanning “Nazm ul-javohir” asarining manbalari va badiiyati” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida asarning g‘oyaviy-adabiy manbalari tadqiq etilib, bir bob doirasida badiiyatiga to‘xtalangan⁶. Ma‘mura Rashidova “Nazm ul-javohir”ning matniy tadqiqoti bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan va monografiya e‘lon qilgan. Shuningdek, asarning ilmiy-tanqidiy matnini nashr ettirgan⁷.

Yaqin yillarda A.Abdullayev, H.Ahmedov, S.Meli kabi olimlarning “Nazm ul-javohir” asarini turli rakurslardan o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy maqolalari e‘lon qilindi. Jumladan, S.Melining “Nazm ul-javohir”: intermatnlik va ma‘nolar muloqoti” maqolasida asardagi ruboiylar intermatnlik va ma‘nolar muloqoti nuqtai nazaridan tahlilga tortilgan⁸.

Mazkur dissertatsiyani yaratishda nomlari qayd etilgan tadqiqotlarga tayanildi va zarurat darajasida ulardan istifoda etildi. Shuningdek, ayrim o‘rinlarda ularga

⁵ Шайхзода М. Асарлар. Т.4. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 372 б.; Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Т.13. – Тошкент: Фан, 1979. – 512 б.; Хусанхўжаев И. Алишер Навоий таълим-тарбия ҳақида. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1963 – 233 б.; Ғафуржонова Т. Назм ул-жавоҳир. / Навоий ва адабий таъсир масалалари. Тошкент: Фан, 1968. – 344-352 б.; Қаюмов А. Шеър дурдоналари ва севги шаббодалари./ А.Навоий. Асарлар. 15 томлик. 15-том. – Тошкент, 1968. Shu muallif. Дилкушо такрорлар ва рухафзо ашъорлар. – Тошкент: Шарқ. 2014. – 271 б.; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. II том. Тошкент: Фан, 1977. – 195-201 б.; Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий (Жанрнинг поэтикаси ва тарихи). – Тошкент: Фан, 1981. -100 б.; Қудратуллоев Ҳ. Навоийнинг адабий-эстетик олами. – Тошкент: Фан, 1991. – 194 б.; Shu muallif. Навоийга қайтиш. 2-китоб. – Тошкент: Фан. 2011. – 197 б.; Қурамбоев К. Қўнғул бермиш сўзимга... – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1992. – 176 б.; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 132 б.; Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. . – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 240 б.; Ғаниева С. Ҳар бирини тўрт дурри гавҳар дегил. / Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2001. №3.; Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. – Тошкент: Адолат, 2004. – 44 б.; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006. -288 б.; Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари (Ўзига хослик ва аъъанавийлик асосида). – Фил.ф.д. ... дис. – Тошкент: 2008. -270 б.; Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мавороуннаҳр-Ўзбекистон. 2009. – 445 б.; Очилов Э. Бир ховуч дур. – Тошкент: Ўзбекистон. 2011. – 240 б.; Маҳмуд М. Яна Навоийни ўқиб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2011. – 120 б.; Shu muallif. Навоий ижодига янги қараш. – Тошкент: “MERIYUS” ХНМК, 2015. – 164 б.; Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Академнашр, 2013. – 197 б.; Алишер Навоий. Қомусий луғат. 1-ва 2-жилдлар. – Тошкент: Sharq, 2016. -536 б.; -480 б.; Сарибоева М. Ким олим эса... /Абадият гулшани. – Тошкент: Sharq, 2016. – 192 б.; Ражабова М. Илм ўзликни англамақдир. / Абадият гулшани. – Тошкент: Sharq, 2016. – 192 б.; Мадаев О. Навоий суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. – 143 б.; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021. – 148 б.; Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: -Tamaddun. 2018. – 234 b.; Rajabova M., Amanova Z. Navoiyshunoslik (O‘quv qo‘llanma). – Тошкент: Asian Book House, 2020. – 192 б.

⁶ Ражабова М. Алишер Навоий “Назм ул-жавоҳир” асарининг манбалари ва бадияти: Фил.ф.н. ...дис. – Тошкент. 2007.

⁷ Рашидова М. Алишер Навоий “Назму-л-жавоҳир” асарининг матний тадқиқоти (Монография). – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011.

⁸ Абдуллаев А. “Назм ул-жавоҳир”нинг жанрий хусусиятлари./ Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. №5.– Б.30. Аҳмедов Ҳ. Алишер Навоийнинг “Назм ул-жавоҳир” асарини ўрганиш бўйича айрим методик тавсиялар./ Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). 2018. – Б.292. Мели С. “Назм ул-жавоҳир”: интерматнлик ва маънолар мулоқоти./ Ўзбек тили ва адабиёти. 2020. №1.– Б.15.

tanqidiy yondashildi. Ushbu tadqiqot unda “Nazm ul-javohir” asari poetikasining ilk bor yaxlit va struktur-funksional tarzda tahlil etilgani bilan o‘zidan avval amalga oshirilgan ishlardan farq qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qo‘qon Davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kafedrasining “O‘zbek adabiyotining dolzarb muammolari” umumiy rejalari doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi “Nazm ul-javohir”ga xos islomiy ma’rifat g‘oyalarining badiiy talqinini o‘rganish va asarning struktur-funksional tahlilini amalga oshirish vositasida badiiy g‘oya va shakl munosabatlarini tadqiq etish va bu orqali buyuk shoir ijodining poetik o‘ziga xos jihatlarini ilmiy asoslashdan iborat. Bunda tadqiqot natijalarining to‘liq bo‘lishini ta’minlash maqsadida asar matnshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan ham o‘rganildi.

Tadqiqotning vazifalari:

“Nazm ul-javohir”ning genezisi, ilhom omillari va sabablarini tadqiq etish asnosida Sharq adabiyotida hikmatlarni badiiylashtirish tarixi va an’anasini yoritish; asar nashrlarini o‘zaro qiyoslash, zarur o‘rinlarda ilmiy-tanqidiy matnga murojaat qilish orqali mumtoz matnning asl qiyofasini tiklash;

“Nazm ul-javohir”ni islomiy-falsafiy manba sifatida tahlil qilib, uning g‘oyaviy asoslari bo‘lmish Qur’oni karim va hadisi sharif bilan uyg‘unligini asoslash;

asarda aks etgan Navoiyning badiiy so‘z maqomi va til odobi haqidagi qarashlarini o‘rganish orqali buyuk adibning Sharq adabiy-estetik va didaktik tafakkuri tarixidagi o‘rnini tayin etishda “Nazm ul-javohir”ning alohida ahamiyati borligini dalillash;

“Nazm ul-javohir”da qo‘llangan tasvir vositalarining badiiy mazmun va shakl munosabatini yuzaga chiqarishdagi o‘rnini belgilash orqali Navoiy ijodiy mahoratining asosiy qirralari hamda uslubiy-poetik xususiyatlarini aniqlash;

strukturnal tahlil imkoniyatlaridan kelib chiqib, semiotik kalitlar va binar-oppozision juftliklar asosida asar mazmuni va ritmining badiiy uyg‘unligi, ruboiylar vazniga xos ritmik variatsiyalarning funksional qirralarini ko‘rsatib berish;

asarning qofiya xususiyatlari tadqiqi asosida Navoiy qofiya qo‘llash mahoratining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash va qofiyaning asar poetikasiga ko‘rsatuvchi ta’sirini ochib berish.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida “Nazm ul-javohir” asarining Alisher Navoiy 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”dan o‘rin olgan nashri asosiy manba sifatida olindi, shuningdek, ba’zi o‘rinlarda uning 10 jildlik va 15 jildlikdan o‘rin olgan nashrlariga hamda Ma’mura Rashidova tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matniga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning predmetini Alisher Navoiy ijodiy merosi hamda o‘zbek mumtoz adabiyotida alohida o‘rin egallovchi “Nazm ul-javohir” asari poetikasining tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada struktur-funksional, tasniflash, tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, biografik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sharq adabiyotida mavjud bo'lgan Hazrat Ali hikmatlarini badiiy talqin etish an'anasi va "Nazm ul-javohir"ning maydonga kelish tarixini o'rganish natijasida mazkur asarning ko'plab ilmiy manbalarda qayta-qayta aytib kelinganidek Hazrat Alining "Nasr ul-laoliy" asarining tarjimai emas, balki o'ziga xos badiiy talqini va sharhi ekanligi dalillangan;

asarning 15, 20, 10 jildlik nashrlari va ilmiy-tanqidiy matni o'zaro qiyoslanib, nashrlardagi kamchiliklar, asosan, ulardagi arabiy ifodalar – Qur'oni karim oyatlari, hadisi sharif va Hazrat Ali hikmatlarining tabdili bilan bog'liqligi aniqlangan va mazkur muammolarning yechimlari ko'rsatib berilgan;

"Nazm ul-javohir" g'oyaviy-badiiy mundarijasining xarakterli jihatlarini tayin etish orqali uning turkiy didaktik she'riyatning betakror namunasi bo'lgan original asar ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan hamda ushbu asarni yozish orqali qo'lga kiritilgan hikmatlarni badiiylashtirish tajribasi shoir umrining so'ngida "Mahbub ul-qulub" asarining yaratilishiga ham muayyan darajada asos bo'lgani aniqlangan. Shuningdek, Navoiy adabiy-estetik qarashlarining mumtoz she'riyat poetik takomiliga ta'siri ochib berilgan;

tadqiqotda ilk marotaba "Nazm ul-javohir" asarining struktur-funksional tahlili amalga oshirilib, undagi badiiy g'oya va asarning shakliy unsurlari bo'lmish badiiy san'atlar, vazn va qofiya sathi o'rtasidagi bog'liqlik asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

"Nazm ul-javohir" asarining poetikasini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar navoiyshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

"Nazm ul-javohir" asarida ifodalangan ma'rifiy-axloqiy g'oyalar bugungi kun o'quvchisining dunyoqarashi, badiiy tafakkurini boyitishda hamda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishi o'z isbotini topgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan manbalarining ilmiy metodlar vositasida tekshirilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o'rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asariga haqqoniy baho berishga, undan o'rin olgan ruboiylarni to'g'ri tahlil va talqin qilishga hamda o'zbek mumtoz adabiyoti manbalarini boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot natijasida yuzaga kelgan xulosalar o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, xususan, Alisher Navoiy ijodi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun, qolaversa, oliy o'quv yurtlarining "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)", "O'zbek tili va adabiyoti" ta'lim yo'nalishlarida "Navoiyshunoslik", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Tasavvuf va badiiy adabiyot", "Badiiy tahlil asoslari", "Mumtoz poetika asoslari" kabi fanlardan ma'ruzalar o'qish va amaliy mashg'ulotlar olib borish, darslik va o'quv

qo'llanmalari yaratish uchun ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Olingan ilmiy natijalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda amalga oshirilgan "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2023 yil 18 apreldagi 186/1 sonli ma'lumotnomasi).

Dissertatsiyada qo'lga kiritilgan natijalardan Qo'qon davlat pedagogika institutida filologiya fanlari doktori (PhD) A.Najmeddinov rahbarligida 2020-2022 yillarda amalga oshirilgan S-ECAGD-18-CA-0067 (PO20002355) raqamli "FY 2018 English Access Microscholarship Program" nomli Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi amaliy loyihada foydalanilgan (Qo'qon davlat pedagogika institutining 2023-yil 29-maydagi 143-son ma'lumotnomasi).

"Nazm ul-javohir" asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va uning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni haqidagi xulosalardan Qo'qon shahar televideniyesi dasturlaridan joy olgan ko'rsatuv va radioeshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. ("Muloqot" televideniyesining 2023-yil 10-fevraldagi № 004/1 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv va radioeshittirishlarni ma'rifiy va amaliy jihatdan boyitishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 4 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 158 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va ob'yekti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Nazm ul-javohir – adabiy manba sifatida**" deb nomlanadi. Bob ikki faslga ajratilib, uning birinchi faslida "*Sharq adabiyotida*

hikmatlarni badiiylashtirish an'anasi va "Nazm ul-javohir"ning ijodiy tarixi haqida so'z boradi. "Hikmat" so'zi Qur'oni karimning 20ga yaqin o'rnida "nasihat va o'git" ("Baqara" surasi, 23-oyat), "nozikta'blik va ilm" ("Aniqki, biz Luqmonga hikmat ato etdik..." "Luqmon" surasi, 12-oyat), "payg'ambarlik salohiyati" ("Baqara" surasi, 251-oyat), "Qur'on sirlarini bilish" ("U o'zi istagan kishilarga hikmat berur. Kimga hikmat berilgan bo'lsa..." "Baqara" surasi, 269-oyat) kabi ma'nolarda qo'llangan. "Hikmat – "to'g'ri hukm berish", "to'g'ri qaror qabul qila olish", "Qur'ondan to'g'ri hukm chiqara olish ilmi", "to'g'ri hukmning o'zi", degan ma'nolarni ifodalaydi. Hikmat – arab tilidagi "hukm" o'zagidan turlangan kalimadir"⁹. Alloh tomonidan insoniyatga ma'lum qilingan ilmni odamlarga yetkazib berishni maqsad qilgani tufayli hadisi sharif va donishmandlar o'gitlari hikmat deb atalgan.

Islomiy manbalardan oziqlangan Sharq adabiyoti tarixida hikmat atamasi keng qo'llangan. Shu asosda alohida she'riyat yo'nalishi ham paydo bo'lgan. Xususan, turkiy adabiyot tarixida hikmatgo'ylik maktabining asoschisi sifatida Ahmad Yassaviy nomi tilga olinadi. Yassaviydan keyin Hakim ota, Zangi ota, Bobo Mochin, Sayyid ota, Iqoniy, Temuriy, Umuriy, Ne'matulloh kabi ko'plab adiblar hikmatnavislik tajribasini davom ettirganlar. Ushbu hikmatlarga e'tibor qaratsak, ularning barchasiga xos ikki umumiy jihatni ko'rish mumkin: islomiy-irfoniy g'oyalar ifodasi hamda xalqona bayon. Ayni fikrni Alisher Navoiyning Hazrat Ali hikmatlari asosida bitilgan "Nazm ul-javohir" asariga nisbatan ham aytish mumkin. Asar "sahli mumtane'" (tushunilishi oson, ammo o'xshatib yozish imkonsiz) uslubida yozilgan bo'lib, unda hikmatlardagi murakkab masalalarga oddiy o'quvchi ham tushuna olishi uchun sodda, ravon tarzda sharh va izohlar berilgan.

Sharqda Hazrat Ali hikmatlarini she'rga solish an'anasi mavjud bo'lganiga qaramay, turkiy tilda hali biror shoir bu hikmatlarni badiiy talqin etmagani sababli shoir ko'nglida mazkur hikmatlar asosida turkiy tilda asar bitish niyati uyg'ongani "Nazm ul-javohir" asarining yaratilishiga asosiy sabab bo'lgan bo'lsa, Husayn Boyqaroning "Risola" asarini bitishi va unda Alisher Navoiyga yuksak ehtirom ko'rsatishi hamda Balxdan Hazrat Ali qabrining qayta topilishi munosabati bilan u yerda mazkur zot uchun maqbara o'rnatilishi ishlarida shaxsan buyuk shoirning o'zi ham ishtirok etgani ana shu niyatning amalga oshishi yo'lida jiddiy bir turtki bo'lgan.

M.Rajabova Amr ibn Bahr al-Johiz (IX asr) arab xalqlari orasida og'zaki shaklda mavjud bo'lgan "Kalomi amir al-mo'minin Ali" asari asosida qisqa hikmatlardan tashkil topgan "Nasr ul-laoliy" ("La'llar sochmasi") nomli saylanma tuzganligi, X asrda Sharif ar-Roziy "Kalomi amir al-mo'minin Ali" asosida 498 hikmatdan iborat "Nahj ul-balog'a" ("Yetuklik yo'li") to'plamini yaratganligi haqida ma'lumot beradi. XIII asrga kelib Rashididdin Vatvot al-Johizning "Nasr ul-laoliy" asaridan 100 ta hikmatni ajratib olib, o'zining forsiy she'riy tarjima va talqini asosidagi "Sad kalima" nomi bilan ham yuritilgan "Nasr ul-laoliy"sini yaratadi.¹⁰

⁹ <https://www.musulmonlar.com/hikmat-nima-o'zi>

¹⁰ Bu haqida to'liqroq ma'lumot uchun qarang: Ражабова М. Алишер Навоий "Назм ул-жавоҳир" асарининг манбалари ва бадийяти: Фил. фан. номз. дисс. – Тошкент. 2007.

Hazrat Ali hikmatlarining Alisher Navoiy tomonidan bitilgan “Nazm ul-javohir” gacha bo‘lgan ijodiy tarixini quyidagi jadval orqali ko‘rsatish mumkin:

№	Asr	Muallif	Asar nomi	Ma’lumot
1	VII asr	Hazrat Ali ibn Abu Tolib	“Kalomi amir al-mo‘minin Ali”	Og‘zaki
2	IX asr	Amr ibn Bahr al-Johiz	“Nasr ul-laoliy” (“La’llar sochmasi”)	Qisqa hikmatlar to‘plami
3	X asr	Sharif ar-Roziy	“Nahj ul-balog‘a” (“Yetuklik yo‘li”)	498 hikmat jamlanmasi
4	XIII asr	Rashididdin Vatvot	“Nasr ul-laoliy” / “Sad kalima”	100 hikmat tarjimasi va forsiy she’riy talqini
5	XV asr	Alisher Navoiy	“Nazm ul-javohir”	268 hikmatning turkiy ruboiylar shaklidagi talqini

Alisher Navoiy al-Johizning “Nasr ul-laoliy” asari tarkibidagi 268 hikmatni turkiy ruboiylar shaklida nazmiy talqin qilib, uni “Nazm ul-javohir” deb ataydi. Ko‘rinadiki, Navoiy “Nazm ul-javohir”i Rashididdin Vatvot asari bilan kompozitsion jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da (buni Navoiyning o‘zi “Burung‘i nozim tarjima qilg‘andek va avvalg‘i mutarjim nazm etgandek, har nuktani bir ruboiy bila ado qilildi” tarzida izohlagan edi), asar muqaddimasidagi va xotimasidagi ruboiylarni qo‘shganda undagi hikmatlar soni 300 ta bo‘lib, “Sad kalima”dan hajman uch baravar ortiqdir.

Shuningdek, dissertatsiyada Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari ko‘plab tadqiqotlar, ilmiy manbalar va o‘quv adabiyotlarida qayta-qayta takrorlab kelinganidek, Hazrat Ali hikmatlarining jamlanmasi bo‘lmish “Nasr ul-laoliy” asarining she’riy tarjimasi emasligi dalillangan. Buyuk shoir o‘z asarida mazkur o‘gitlar mazmunini mumtoz sharhlar, teran mushohadalar, hayotiy dalillar va badiiy tasvirlar bilan boyitishi natijasida ikki buyuk shaxsning falsafiy mulohazalari badiiy shaklda poetik talqin etilgan “Nazm ul-javohir” original asar darajasiga ko‘tarila olgani isbotlab berilgan.

Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari diniy-tasavvufiy ruhda bo‘lgani bois u matni mustabid tuzum davrida muayyan g‘oyaviy tahrirga uchragan asarlardan sanaladi. Shu bilan birga, ushbu asardan o‘rin olgan arabiy ifodalar – Qur’oni karim oyatlari, hadisi sharif va Hazrat Ali hikmatlari joriy alifboga tabdil qilinganda mazkur yozuvlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi chalkashliklar ham sohada bir qator ilmiy muammolarni yuzaga keltiradi. Bu esa o‘z navbatida, asarning g‘oyaviy-badiiy tahlilini amalga oshirishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu tufayli tadqiqot ishimizning “*Nashr qilingan manbalar tavsifi va tabdili muammolari*” deb nomlangan ikkinchi faslida “Nazm ul-javohir” asarining turli nashrlari va ilmiy-tanqidiy matni o‘zaro qiyoslanib, ulardagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari muxtasar tarzda ko‘rsatilgan.

Masalan, muqaddimaning Hazrat Ali madh etilgan o‘rnida “*Janota taharri min tahtiha an-anhorun*” [124] jumlası keladi. Ushbu muborak jumla Qur’oni karim “Haj” surasining 23-oyatidan olingan bo‘lib, aslida shunday shaklda bo‘lishi lozim:

Oyatning to‘g‘ri tabdili esa “Jannatin tajriy min tahtihal anhar” bo‘lib, ma‘nosi “Ostidan anhorlar oqib turgan jannatlar”dir¹¹. Alisher Navoiy Qur‘oni majidda takror-takror keluvchi mazkur oyatga murojaat etish orqali Hazrat Alining buyuk darajotiga ishora qiladi. Biroq matnshunos tomonidan oyatning noto‘g‘ri o‘qilgani tufayli ham ilohiy kalom tabdili buzilgan, ham jumladagi shoirning poetik niyati aks etmay qolgan. Quyidagi ruboiyda esa arab grafikasiga xos bo‘lgan harfdagi nuqta o‘rni o‘zgarishining asar mazmuniga ta‘sirini kuzatamiz:

*Zolimki, erur zulm-u jafo hosil anga,
Zulm etgali-o‘q xotir o‘lur moyil anga,
Bo‘lmoq xush emas qilg‘onidin xushdil anga,
O‘z zulmidin-o‘q o‘lg‘usidur qoyil anga. [163]*

Ushbu ruboiy “Zulm uz-zolimi yauduhu ilal-haloki” (“Zolimning zulmi uni halokatga yo‘llaydi”) hikmatiga asosan yozilgan. To‘rtinchi misraning ilmiy-tanqidiy matndagi shakli: “*O‘z zulmidin-o‘q bo‘lg‘usidur qotil anga*”.

She‘rda zulm qoralanib, zolimning ishi odamlarga jabr-zulm yetkazish ekan, u bu ishidan xushdil bo‘lishi xato ekanligi, chunki zolimning zulmi oxir-oqibat o‘zining halokatiga sabab bo‘lishi xususida so‘z boradi. Hikmatdagi “halok” so‘zi ruboiydagi “qotil” so‘zi bilan mazmuniy munosabat hosil etadi. Biroq bu yerda matnshunos tomonidan arab harfidagi nuqtaning noto‘g‘ri o‘qilgani tufayli “qotil” (قاتل) “qoyil” (قایل) ga aylangan va misra mohiyatidagi “Zolim birovlariga qilgan yomonligidan quvonmasin, chunki u o‘z zulmi tufayli o‘zining qotiliga aylanadi” ma‘nosi “Zolim birovlariga qilgan yomonligidan quvonmasin, chunki u o‘z zulmi tufayli o‘zining qoyiliga aylanadi” tarzida tushunarsiz bir jumlagi aylanib qolgan.

“Nazm ul-javohir” asari shu paytga qadar uch marta nashr qilingan va ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan bo‘lsa-da, ushbu nashrlar turli darajadagi kamchiliklardan xoli emas. Nashrlardagi nuqsonlar, asosan, uning tabdili bilan bog‘liq. Xususan, ko‘p hollarda arabiy ifodalar tabdili soha mutaxassislarining jiddiy tekshiruvidan o‘tmagani bois noto‘g‘ri fikr va talqinlarni keltirib chiqargan. Shu sababli “Nazm ul-javohir”ning turli kamchiliklardan xoli bo‘lgan mukammal matnini nashr etish matnshunoslik sohasidagi eng ustuvor vazifalardandir.

Ishning ikkinchi bobi “**Nazm ul-javohir**”ning **g‘oyaviy asoslari va mavzu mundarijasi**” deb nomlanib, ikki faslni o‘z ichiga oladi. Bobning “*Nazm ul-javohir*”da islomiy ma‘rifat g‘oyalarining poetik talqini” deb atalgan birinchi fasli asardagi musulmon axloqiga xos bo‘lgan imon, insof, diyonat, halollik, adolat, yaxshilik, odob, hayo, vafo, saxovat, himmat, qanoat, tafakkur, ilm-u irfon, sabr, shukr, xavf-u rajo, tavakkul, rizo, fano kabi muhim masalalar talqiniga bag‘ishlangan.

*Har kimga livoyi charxi farsud kerak,
Ko‘nglida sipehr dardi mavjud kerak,
Har kimgaki, ko‘ngli dardi nobud kerak,*

¹¹ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Куръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2022. – Б.334.

Har neki qazodin o'lsa, xushnud kerak.[147]

“Davo ul-qalb ir-rizou bil-qazoi”, ya’ni “Qalbning shifosi – qazoga rozi bo‘lish” hikmati asosida yozilgan mazkur ruboiyda badiiy g‘oya ramziy ifodalar vositasida taqdim etilgan. Chunonchi, birinchi misrada “*livoyi charxi farsud*”, ya’ni nopok charxning bayrog‘i haqida so‘z boradi. Bayroq obrazi mumtoz adabiyotda maqsadga erishish ma’nosini anglatadi. Qadimda podshohlar biror g‘alabaga erishganlarini bayroq ko‘tarish yoki o‘rnatish bilan bildirganlar. Charx esa bu yerda dunyo ma’nosida bo‘lib, u ikkinchi misradagi “*sipehr*” (osmon) so‘zi bilan bog‘lanadi va baytdan shunday mazmun yuzaga keladi: “Kimga nopok charxning bayrog‘i – dunyo ustidan hukmronlik kerak bo‘lsa, demak, uning ko‘nglida dunyo dardi bor”. Ya’ni kimning qalbida dunyoning o‘tkinchi hoy-u havaslari bo‘lsa, demak, u tuganmas dard-u tashvishlarga mubtalodir. Zero, dunyo matohlari kishiga faqat muammo-tashvish keltiradi. Ikkinchi baytda esa kimki ko‘nglidagi dunyo dardidan xalos bo‘lishni istasa, unga qazoyi qadardan nimaiki berilsa, shunga rozi bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Umuman, fano mavzusi Alisher Navoiy ijodida eng ko‘p yoritilgan masalalardan bo‘lib, buyuk shoir nazaridagi fano insonning o‘z botinidagi nafsdan kechishi orqali “qiyomati sug‘ro” – kichik qiyomat deb ataluvchi ma’naviy tug‘ilishni o‘z boshidan kechirishini va oxir-oqibat olamni ishq, ma’rifat va haqiqat nuri bilan mushohada etishini anglatadi¹². Buyuk ijodkor pandnoma adabiyotning yana bir yetuk namunasi bo‘lgan “Mahbub ul-qulub” asarida ham Allohdan fano maqomiga yetkazishini so‘ragan edi:

*Yo rabki, fano qushin romim ayla,
Romim demayinki, saydi domim ayla.
Ham faqr tariqida xiromim ayla,
Ham zoviyai fano maqomim ayla*¹³.

Bu kabi tahlillar “Nazm ul-javohir”ning adib umrining so‘ngida yaratilgan “Mahbub ul-qulub” asariga ham muayyan darajada ta’sir etganini ko‘rsatadi. Mazkur asarning ikkinchi qismidan o‘rin olgan tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavozu’ va adab, zikr, tavajjuh, rizo, ishq zikriga bag‘ishlangan boblarda ruhiy tarbiyaning muhim bosqichlari bo‘lmish insoniy fazilatlarning irfoniy-axloqiy talqini keltirilar ekan, bunda Hazrat Ali hikmatlarini badiiylashtirish tajribasining manfaatlari namoyon bo‘ladi.

“*Asarda Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari va til odobi masalalari ifodasi*” deb nomlangan ikkinchi faslda adibning so‘z bilan bog‘liq fikrlari o‘rganib chiqilgan. Navoiyning “Nazm ul-javohir”da aks etgan so‘z haqidagi qarashlarida uning masalaga ikki taraflama yondashuvi namoyon bo‘lgani aniqlangan. Bir tomondan, u so‘zning poetik funksiyalari haqidagi fikrlarini bayon qilsa, ikkinchi tomondan, so‘z odobi haqidagi didaktik qarashlarini o‘rtaga tashlaydi. Muqaddima qismida bayon etilgan so‘z bilan bog‘liq fikrlar adabiy-estetik xarakterda, asarning asosiy qismidan o‘rin olgan Hazrat Ali hikmatlari asosidagi ruboiylarda esa til odobiga oid muhim masalalar yoritiladi. Muallif Qur’oni karim va hadisi sharif

¹² Qarang: И.Хакқул. Навоий шеърлятида фано талқинлари / Мерос ва моҳият. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.95.

¹³ Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 14-том. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б.47.

mazmuniga mos ravishda soʻzning mohiyati, qudrati, qadr-qimmat, turlari, soʻzlashuv odobi va til ofatlari kabi muhim axloqiy masalalarni oʻquvchiga sodda va ravon tarzda anglatib, uni mulohaza yuritishga daʼvat etadi.

Shu bilan birga, “Nazm ul-javohir”da Navoiy soʻzning shakl va maʼno nuqtai nazaridan uch darajaga boʻlinishini eʼtirof etadi: aʼlo (oliy), avsat (oʻrta) va adno (quyi). Buyuk shoir aʼlo darajadagi soʻz sifatida Alloh kalomi boʻlmish Qurʼoni karim, hadisi sharif va barcha anbiyoyu avliyolar hikmatlarini; avsat darajadagi soʻz sifatida balogʻat ilmining sohiblari kalomlarini, adno darajadagi soʻz sifatida esa oddiy xalqning kundalik turmushda ishlatadigan soʻzlarini koʻrsatadi. Bunday xulosalar ulugʻ mutafakkirning boshqa asarlarida uchramasligi va uning adabiy-nazariy qarashlarini toʻldirib turishi bilan eʼtiborlidir.

Uchinchi bob **“Nazm ul-javohir”ning struktur-funksional tahlili: badiiy gʻoya va shakl munosabati**” deb nomlanib, uch faslni oʻz ichiga oladi. Bobning birinchi faslida *“Badiiy tasvir vositalari istifodasidagi struktur oʻziga xosliklar”* haqida soʻz boradi. Maʼlumki, mumtoz adabiyot namunalari tadqiqida anʼanaviy kanonik mezonlar asosidagi badiiyat va u orqali koʻzda tutilgan funksional oʻziga xosliklarni anglab yetish alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ijodkorning mahorati teran mazmunni goʻzal shaklda ifoda eta bilishda namoyon boʻladi. Alisher Navoiy ijodiyotining bezavollik sabablaridan biri uning nafaqat maʼnaviyat qomusi, balki sanʼat moʻjizasi ham ekanligidadir. Xususan, “Nazm ul-javohir” asari muqaddimasidan oʻrin olgan quyidagi nasriy parchada rujuʼ sanʼatining oʻxshatish asosidagi oʻziga xos shakli – tashbehi tafzil sanʼatidan mohirona foydalanilgan boʻlib, unda Navoiyning nuktadon va sanʼatpardozi shoir sifatidagi mahorati namoyon boʻlgan: *“maoni sarvu gullari bila ruhparvar maqosidi shamshod va sunbullari birla ruhgustar, yoʻq, yoʻqkim juzve, balki daftare, ne daftarkim, junde, qaysi jungkim, bahre! Juzv desam, qaysi juzvning har harfi mazhari kull boʻla olgʻay. Agar jung desam, qaysi jungda yuz daryo topilibdur va agar daryo desam, qaysi daryoning har durri quyosh gavharigʻa ortuqchiliq qilibdur”*. [128] Bu yerda “Nazm ul-javohir” asarining yozilishiga ilhom bergan Husayn Boyqaroning “Risola”si xususida soʻz bormoqda. Navoiy mazkur ijod namunasining benazir ekanligini alohida eʼtirof etadi. Bunda shoir dastlab asarning “maʼno sarv-u gullari bilan ruhni parvarishlovchi va maqsad shamshod-u sunbullariga ruh bagʻishlovchi” ekanligini bayon etar ekan, tadrijiy ravishda fikridan qaytib, uni avval juzv, keyin daftar, soʻngra jung, va nihoyat bahr deb ataydi. Shundan soʻng fikridan qaytish sabablarini nozik badiiy dalillar bilan izohlab beradi. “Juzv”ning lugʻaviy maʼnosi “boʻlak”, “qism” boʻlib, keltirilgan parchada u orqali “Risola”ning Husayn Boyqaro tabʼidan bir namuna ekanligiga ishora qilingan. Navoiy “Risola”ni “juzv” deb ataganligi fikridan qaytib, uning har bir harfiga “mazhari kull” – “butunning ifodasi” deb baho berar ekan, asarda koʻtarilgan masalalarning ahamiyatini poetik til bilan koʻrsatib bergan. Juzvdan kattaroq ijod jamlanmasi daftar, undan ham yirigi jungdir. Lugʻatda “jung” soʻzi ikki xil mazmun bilan izohlanadi. Birinchisi “turli sheʼrlar yozib qoʻyiladigan daftar; tanlangan asarlar toʻplami”, ikkinchi maʼnosi esa “katta

kema”dir¹⁴. E’tiborlisi, nasriy parchada mazkur so’zni har ikki ma’noda ham tushunish mumkin. Dastlab, birinchi ma’nosida tushunsak, “u oddiy daftar emas, balki yuksak fikrlar aks etgan bitikdir” mazmunini, ikkinchi ma’nosida tushunsak esa “u oddiy daftar emas, balki ma’no durlarini o’ziga jo etgan katta kemadir” mazmunini ifoda etadi. “Jung” so’zi birinchi ma’nosida tushunilsa, o’zidan avvalgi o’xshatilmish “daftar” so’zi bilan, ikkinchi ma’nosida tushunilganda esa o’zidan keyingi o’xshatilmish “bahr” (daryo) so’zi bilan uzviy bog’lanadi. Bu yerda bir so’zni ikki xil mazmunda qo’llash orqali iyhom san’ati yuzaga kelgan bo’lib, “bir xil so’zlar vositasida bir-biridan keskin farqlanuvchi ikki mazmunning ifodalanishi, chindan ham, shoirga xos yuksak mahoratdan darak beradi”¹⁵. Muqaddimadan o’rin olgan nasriy parchaning davomida fikr darajama-daraja rivojlantirilib, muallif asarni kema ham emas, daryodir, deydi. Chunki tabiatda kema daryoning ichida bo’ladi. Ammo “Risola”ning ichida yuzlab ma’no daryolari yashirin, deydi buyuk adib. Keyin esa bu fikridan ham qaytadi. Negaki hech bir daryoning “*har durri quyosh gavhari*”dan ortiq emasdir. Ushbu ifoda “Risola”ning har biri quyoshdan ham porloq dur-u gavharlarini so’z bilan ta’rif etish imkonsiz” degan xulosaga yo’llaydi. Tashbehi tafzilning beqiyos namunasi bo’lgan mazkur misolda Navoiy fikrni rad etish vositasi sifatida qo’llagan so’zlar ham bir-birini takrorlamaydi: *yo’q-yo’q, balki, ne, qaysi*. Mo’jazgina nasriy parchaning yuksak badiiyatini ta’minlagan jihat undagi fikrdan qaytishlar sonining ko’pligi emas, balki asoslanganligidir. Navoiy unda so’zning ifoda imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanib, ruju’ talabiga muvofiq o’z fikridan qaytar ekan, buning sabablarini ham san’atkorona izohlaydi. Shu tariqa nasriy parchada istiora, tashbehi tafzil, iyhom, tanosub, saj’ kabi badiiy san’atlarni qo’llar ekan, ruju’ san’ati ushbu san’atlarni uyushtiruvchi yadro vazifasini bajaradi.

Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” xotimasida bu asarning olamda tengi yo’qligini faxr bilan ta’kidlaydi:

*Bu turfaki farxundadurur foli aning,
Yo’q mohjabinlar ichra timsoli aning,
Ham “Fotiha”si nuqtasidur xoli aning,
Ham xotima lululari xalxoli aning*¹⁶.

Navoiyning e’tirof etishicha, “Nazm ul-javohir” shunday ajoyib asarki, uning foli – kelajagi ham, albatta, muborak va saodatli bo’ladi. Ushbu jumla ortida buyuk shoirning orzu-umidi aks etgan bo’lib, unda muallifning asar kelgusi avlod uchun ham suyumli va manfaatli bo’lishi istagi yashirin. Ilmi sanoyi’da bu insho san’atining tamanni’ usuli deb yuritiladi.

Ikkinchi misrada esa ijodkor uning so’z go’zallari ichra tengsiz ekanligini ta’kidlar ekan, keyingi misralarda bunga o’ziga xos izoh beradi. Mumtoz adabiyotimizda ma’shuqa yuzidagi xolga uning husniga husn qo’shuvchi unsur sifatida qaralib, alohida tavsiflangan. “Nazm ul-javohir” esa shunday go’zalki, uning

¹⁴ Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.235-236.

¹⁵ Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийат малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.78.

¹⁶ Асарнинг хотима қисми 20жылдлик нашрда тушириб қолдирилгани сабабли рубоий қуйидаги манбадан олинди: Рашидова М. “Назму-л-жавоҳир” асарининг матний тадқиқоти. Монография. – Тошкент: MUMTOZ SO’Z, 2011. – Б.117.

xoli oddiy xol emas, balki asar fotihasidagi – boshlanmasidagi ilk nuqtadir. Ushbu ta’rif orqali Navoiy, bir tomondan, asarning nafaqat har bir so’zi, balki nuqtasi ham go’zalligini mubolag’aviy ta’riflash orqali o’quvchi tasavvurida uning obrazli qiyofasini yaratishga muvaffaq bo’lgan bo’lsa, boshqa bir tomondan, “Fotiha” (فاتحة) so’zini qo’llab talmeh san’atiga murojaat qilish orqali Qur’oni karimga ishora berib, asarning ildizi ilohiy manbaga borib taqalishini ifodalamoqda. “Fotiha” so’zi arab yozuviga ko’ra, “fe” (ف) harfi bilan yozilib, ruboiyda bu harfning nuqtasi tilga olingani esa, o’z navbatida, kitobat san’atini ham hosil qilmoqda. Qolaversa, Navoiy ruboiyda “Fotiha” so’zidagi iyhom orqali ikki xil mazmunni berishga muvaffaq bo’lgan. To’rtinchi misradagi “Xotima lulu’lari” istiorasida qo’llangan “lu’lu” (لولو) so’zining ko’pligi “laoliy” (لالى) dir. U orqali Hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” asariga ishora qilinmoqda. Bu orqali buyuk ijodkor “Nazm ul-javohir”ning yaratilishiga asos bo’lgan muqaddas manba va uning muallifiga o’z hurmatini ham izhor qilmoqda. Arab tilida “xalxol” so’zi “oyoqqa taqiladigan qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan oltin yoki kumush halqa”¹⁷ ma’nosini anglatadi. “Asar shunday go’zalki, uning oyoqlari la’l-injular bilan ziynatlangan” deyish orqali shoir ruboiylar xotimasida Hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” asaridan o’rin olgan hikmatlar aks etganini poetik ifoda etadi. “Fotiha” – boshlanmadagi “fe” nuqtasi yuzdagi xolga, xotima la’llari oyoqdagi xalxolga nisbat berilishi laffu nashr hukmiga muvofiq keladi. Muallif boshlanma ma’nosidagi “fotiha” yuzdagi xol bilan, so’ngso’z ma’nosidagi “xotima” oyoqdagi xalxol bilan aloqadorlik hosil qilishini anglab yetishni o’quvchiga havola qiladi. Buni idrok etgan zakiy o’quvchi Navoiy “Nazm ul-javohir”dek so’z go’zalining yuzidan oyog’igacha – boshdan oxirigacha ma’no javohirlari bilan ziynatlanganini hayratomuz darajadagi mahorat bilan ta’riflab berganiga ishonch hosil qiladi.

“Ruboiylar vazni va poetik niyat aloqasi” deb nomlangan ikkinchi faslda asar vazni va ritmik variatsiyaga murojaat qilinishi ijodkorning qanday poetik niyatini yuzaga chiqarishga sabab bo’lgani, shakldagi o’zgarish mazmunda qay tarzda o’z ifodasini topgani, asar shakli (vazni) va mazmuni o’rtasidagi ichki bog’liqlik va uyg’unlik ochib berilgan.

Ritmik variatsiya aruziy hodisa bo’lib, bir vaznning ichki imkoniyatlar asosida yangi variantlarga ega bo’lishidir. Ushbu sohada maxsus tadqiqot olib borgan olim D.Yusupova ritmik variatsiyaning badiiy funksiyalari to’g’risida batafsil ma’lumot bergan¹⁸. Unga ko’ra, ritmik variatsiya faqat shakl hodisasi bo’lmay, muayyan darajada mazmunda ham o’z aksini topadi. Ushbu hodisa ruboiyda axrab (maf’uvlu) va axram (maf’uvlun) ruknlarining almashinib kelishida kuzatiladi. Bir tarmoq doirasida ritmik variantlarning almashinuvi ko’proq shaklga xos hodisa bo’lib, u mazmunda deyarli ahamiyat kasb etmaydi. Biroq tarmoqlararo ritmik variatsiyaning qo’llanishi ham shaklga, ham mazmunga birday ta’sir ko’rsatadi. Sababi axramli misra ruboiyda fikr urg’usiga ega bo’ladi. So’zda urg’u olgan bo’g’in boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan talaffuz qilinib, cho’ziqroq o’qilgani kabi she’rda

¹⁷ Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.647.

¹⁸ Qarang: Юсупова Д.Р. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмининг бадий уйғунлиги. – Фил. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2008.

ham fikr urg'usi olgan misra boshqa misralardan ajralib turuvchi ohangga ega bo'ladi. "Nazm ul-javohir" asaridagi axramli misralarni tadqiq etish natijasida ularda fikr urg'usining ifodalanishini quyidagi tiplarga ajratish mumkinligi aniqlandi:

1.Tezis: sharh. Bunday shakl axram tarmog'i ruboiyning 1-misrasida istifoda etilishiga xos bo'lib, bunda o'quvchi e'tibori dastlab she'rdan aks etgan asosiy masalaga qaratiladi, bosh g'oyaga urg'u beriladi. Keyingi misralarda esa ana shu masalaning sharhi bayon etiladi.

Irfon ah / liga el / niyozi yax / shi,

— — — / — V — / V — — — / —

Ta'zim +i / la lutfi dil / navozi yax / shi,

— — V / V — V — / V — — — / —

Gar ma'ri / fa t +o'lsa cho / rasozi yax / shi,

— — V / V — V — / V — — — / —

Toat ko' / pidin ma'ri / fa t +ozi yax / shi. [157]

— — V / V — — V / V — — — / —

Hazrat Alining "Shammatun min al-ma'rifati xoyrun min kasir il-a'mali" ("Oz ma'rifat ko'p toatdan yaxshiroq") hikmati asosida bitilgan mazkur ruboiy uch vaznlidir. Uning ilk misrasi hazaji musammani axrami ashtari solimi abtar, ikkinchi va uchinchi misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar, so'nggi misrasi esa hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar vaznida.

Ruboiyning ilk misrasida irfon masalasida so'z boradi. Demakki, ushbu so'z asarda semiotik kalit vazifasini o'tab, o'quvchi bu masala mohiyatini bilmay turib hikmat mag'zini chaqolmaydi. Mazkur so'zning ma'nosini to'g'ri anglamay turib, hikmatni o'qish o'quvchida "Ozgina bilim ham ko'p toatdan yaxshiroqdir" degan tor tushunchaga kelish xatarini tug'diradi. Ushbu tasavvufiy istiloh arab tilidagi "arafa" (bilmoq) so'zi bilan asosdosh bo'lib, u bilim degan ma'noni bildiradi. Ammo bu bilim oddiy ilm emas. Sababi oddiy ilm aqlga, irfon esa qalbgaga tayanadi. Shu bois ilm sohibini olim, irfon sohibini esa orif deydi. Olim masalaning zohiriga, orif botiniga nazar tashlaydi. Ilm mantiqiy masalalarni hal qilsa, mantiq o'z qoluvchi hollarda qalb ilmi irfon yordamiga keladi. Shu bois Alisher Navoiy ahli irfonni "chorasoz" – "chora qiluvchi" deb ataydi. Irfon ahli bo'lmoq uchun, ya'ni ma'rifat hosil qilmoq uchun inson avval zohiriy ilmlarni egallashi talab etiladi. Demakki, har bir orif ayni damda yetuk olim hamdir. Ammo olim bo'lmoqlikning o'zi orif bo'lmoqqa yetarli emas. Kimki oriflik maqomining ilk pog'onasida bo'lsa ham, u olimlikning eng yuqori pog'onasidan balanddadir. Shunday ekan, oz ma'rifat ham aslida yetuk ilm bo'lib, u hammaga ham nasib qilavermaydi. El-yurt ham ana shunday Alloh suygan bandalarga alohida hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'ladi. Ruboiyning yuqoridagi uch misrasi mazmuni ustida tafakkur yuritgan o'quvchi endi to'rtinchi misrada aytiluvchi hikmat ma'nosini ham to'g'ri qabul qiladi. Darhaqiqat, oz bo'lsa-da tafakkur sohibi, irfon sohibi bo'lmoqlik, aqlan anglab, qalban his qila bilmoqlik bo'm-bo'sh qalb bilan mohiyatini anglamagan holda qilingan ibodatdan yaxshiroq sanaladi. Demak, ruboiyning ilk misrasida axram tarmog'ining qo'llanishi o'quvchi diqqatini matndagi markaziy tushuncha – irfon masalasiga qaratishni ta'minlaydi.

2.Binar oppozitsiya. Bu tipdagi ruboiyning 2-misrasida axram tarmog‘idan foydalanilib, unda she’rning 1-misrasida aks etgan tezisga qarama-qarshi bo‘lgan ikkinchi masala – antitezis qo‘yiladi. Binar oppozitsiyaning eng muhim jihati shundaki, unda zidlanayotgan ikki tushuncha bir-birini inkor etmaydi, balki taqozo etadi. Inson tafakkurining o‘ziga xosligi, ya’ni har bir masala o‘zining ziddi bilan idrok etilishiga asoslangan ushbu uslub muayyan tushunchani keng va atroflicha o‘rganish imkonini beradi.

Ey hajr (i), / meni sen +ay / la jondin g‘o / yib,

– – V / V – V – / V – – – / –

Lekin qil / ma ul o / s(i)tondin g‘o / yib,

– – – / V – – / V – – – / –

Har kimsa / ki bo‘ldi bir / makondin g‘o / yib,

– – V / V – V – / V – – – / –

Ham bo‘ldi / aning bahra / si ondin g‘o / yib. [166]

– – V / V – – V / V – – – / –

Ushbu ruboiy ham uch vaznli bo‘lib, uning toq misralari hazaji musammani axrabi maqbuza solimi abtar, ikkinchi misrasi hazaji musammani axrami ashtari solimi abtar, so‘nggi misrasi esa hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar vaznida yozilgan. Hazrat Alining “G‘oba harrohu man g‘oba nafsahu” (“Kimki o‘zini yashirsa, belgilari ham ko‘rinmaydi”) hikmati asosida bitilgan mazkur ruboiy birdaniga hajrga murojaat bilan boshlanib, “Sen meni jondan ayiraver!” degan mardonavor hayqiriq qalbni junbushga keltiradi. Ikkinchi misrada esa ta’kid yanada kuchaytirilib, mazmun yanada salmoqdorlik kasb etadi: “*Lekin qilma ul ostondin g‘oyib*”. Uchinchi va to‘rtinchi misralar esa Hazrat Ali hikmatining Navoiyga xos talqinidir: “Kim bir makondan ayrilsa, u insondan o‘sha dargoh bahrasi ham g‘oyib bo‘ladi”. Demak, asosiy masala “ul ostondin” – iymon manzilidan ayrilmaslikda ekan. Ushbu teran mazmunni ifodalashda ikkinchi misra o‘lchovi bo‘lgan axram vazni muhim rol o‘ynagan. Masalaga struktur poetikaning kategoriyalar tizimi orqali yondashsak, unda ostona (“*ul ostondin*”) – belgi, iymon manzili – mohiyat, ana shu matnosti ma’no-mohiyatni anglash va his qilish esa – qabul qiluvchi (retsipient) faoliyatidir.

3.Fikr – xulosa. Ushbu tip axram tarmog‘i ruboiyning 3- va 4-misralarida qo‘llanishiga xos bo‘lib, uni o‘z navbatida yana ikki turga bo‘lish mumkin: a) fikr – sintez xulosa; b) fikr – intertekstual xulosa.

Fikr – sintez xulosa – ruboiyning 3-misrasida axram tarmog‘iga murojaat etilishiga taalluqli bo‘lib, bunda ruboiyning 1- va 2-misralarida bayon etilgan fikrlar birlashtirilib, umumiy hukm chiqariladi. Ushbu hukm-xulosa esa ruboiyning 4-misrasida aks etuvchi hikmat-xulosa uchun tayanch vazifasini o‘taydi.

Ul kim qo‘ / lida durri / laoliy bo‘l / g‘ay,

– – V / V – – V / V – – – / –

G‘amning a / nga qayda eh / timoli bo‘l / g‘ay,

– – V / V – V – / V – – – / –

Muflis bo‘l / moq tarab / zavoli bo‘l / g‘ay,

– – – / – V – / V – – – / –

G‘amgindu / rur +ulki, il / gi xoli bo‘l / g‘ay. [161]

Uch vaznli ushbu ruboiy Hazrat Alining “Doqa sadruhu man doqa yaduhu” (“Qo‘li kaltaning ichi tor bo‘ladi”) hikmati asosida bitilgan. Ko‘rinib turganidek, hajman ixcham bu hikmat mazmuni ruboiyning 4-misrasida aks etgan (*G‘amgindurur ulki, ilgi xoli bo‘lg‘ay*) va bu misra ruboiyning 2-misrasi bilan bir xil vaznda, ya‘ni hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar vaznidadir. Ruboiyning 1-misrasi hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar vaznida, 3-misrasi esa hazaji musammani axrami ashtari solimi abtar vaznida bitilgan. She‘rning uchinchi misrasida axram tarmog‘iga murojaat etilishi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘quvchi diqqatini eng asosiy nuqtaga qaratishga xizmat qilyapti.

Hazrat Alining yuqorida keltirilgan “Qo‘li kaltaning ichi tor bo‘ladi” hikmatini “qo‘lida puli bo‘lmagan, cho‘ntagi bo‘m-bo‘sh odam g‘amgin bo‘ladi”¹⁹ tarzida tushunish ham to‘g‘ri. Biroq mazkur hikmatni faqat shunday zohiriy ma‘nodagina tushunish bilan cheklansak, uning qatidagi asosiy – botiniy ma‘nosi anglashilmay qoladi. Buni yaxshi anglagan Alisher Navoiy ruboiyda hikmat qatiga berkingan asl ma‘noni ochuvchi semiotik kalitso‘z – “muflis”ni qo‘llaydi. Bu so‘zning ma‘nosi hadisda shunday izohlangan: “Payg‘ambarimiz (s.a.v.) shunday dedilar: “Muflis kim ekanligini bilasizlarmi?” Sahobalar: “Bizning oramizda biror narsasi, biror dirhami ham bo‘lmagan kishi muflisdir”, deyishdi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): Mening ummatimdan haqiqiy muflislar shunday kishilarki, qiyomat kunida namoz, ro‘za, zakotlari bilan kelishadi, shu bilan birga, dunyo hayotida mana buni so‘kkan, yana birini ayblagan, boshqa birining molini yegan va yana boshqasining qonini oqizgan, yana birini nohaq urgan. Bas, unday kishining yaxshi amallari qiyomat kunida ana u haqdorlariga olib beriladi. Agar haqdorlarining har biriga haqlari olib berilgunga qadar yaxshi amallari tugab qolsa, ularning gunohlari olinib, bunga yuklanadi, so‘ngra do‘zaxga uloqtiriladi”, dedilar (*Imom Buxoriy rivoyati*)²⁰.

Bundan anglashiladiki, ruboiyda bu dunyoda qilgan zulm-u zo‘ravonligi sababli barcha ezgu amallaridan ayrilib, qiyomat kuni qo‘lida Alloh marhamatiga sabab bo‘luvchi hech vaqosi qolmaydigan kishi chinakam g‘amgin kishi ekan. O‘quvchi “muflis” so‘zining mohiyatini bilsagina asar xulosasini o‘qiganda undagi asl mazmunni anglashga tayyor bo‘ladi. Shu bois buyuk ijodkor “muflis” so‘ziga she‘rda alohida urg‘u berish maqsadida u bilan boshlanadigan misrani axram tarmog‘ida bitib, qolgan uchta axrabli misralardan ajratadi va uni boshqa misralarga nisbatan salmoqdor ohang bilan o‘qishga undaydi.

Fikr – intertekstual xulosa – ruboiyning 4-misrasida axram tarmog‘i istifoda etilishiga xos bo‘lib, u Hazrat Ali va Alisher Navoiy tafakkurining bir nuqtada jamlanishi natijasida bitta umumiy xulosa chiqarilishini anglatadi.

Hirs + ofa / tini nafs (i) / havosi bil / gil,

— — V / V — — V / V — — — / —

Qo‘ymoq + a / ni aql (i) mud / daosi bil / gil,

— — V / V — V — / V — — — / —

¹⁹ Qarang: Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhaftzo ashborlar. – Toshkent: Sharq, 2014. – B.165.

²⁰ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va haft. / Yaxshilik va axloq kitoibi. 34-juuz. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2021. – B.144.

Nafsingg'a / alam hirs (i) / balosi bil / gil,
 – – V / V – – V / V – – – / –
Kechmak mun / din aning / davosi bil / gil. [148]
 – – – / – V – / V – – – / –

Mazkur ruboiy “Do‘ un-nafsi vana’-l-hirsu” (“Hirsdan kechmoq nafsning davosidir”) hikmati asosida bitilgan. Ruboiyning 1- va 3-misralari hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar, 2-misrasi hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar, 4-misrasi hazaji musammani axrami ashtari solimi abtar vaznida. Alisher Navoiy ilk misralardan oq hirsni ofat deb ataydi va bu ofatni nafsoniy orzu-havas keltirib chiqarishini, shu sababli, undan kechmoqlik aqldan ekanligini, chunki insonning orzu-havasidan kelib chiquvchi hirs oxir-oqibat unga alam-iztirob keltirishini bayon etadi. So‘nggi misrada Navoiy mulohazasi Hazrat Ali hikmati bilan birlashadi. To‘rtinchi misrada axrab tarmog‘ining axram tarmog‘iga o‘zgarishi umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan bu xulosaning alohida ta’kid bilan o‘qilishini ta’minlab, misraga hikmat mazmuniga muvofiq vazmin ohang bag‘ishlaydi.

So‘nggi fasl asar qofiyasining badiiyatni ta’minlashdagi o‘rni tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, shunga muvofiq “*Qofiya sathining asar poetikasiga ta’siri*” deb nomlangan. “Nazm ul-javohir” asarining qofiya xususiyatlaridagi o‘ziga xosliklar quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan:

№	Qofiya vazifasida kelgan so‘z	Poetik maqsad
1	Hikmatning kesimi	Hikmatdagi bosh g‘oyaga urg‘u berish
2	Hikmatning egasi	Ruboiyning bosh g‘oyasini ta’kidlab ko‘rsatish
3	Hikmatdagi ichki qofiya	Intertekstual aloqani kuchaytirish
4	Turkiy qofiyadosh so‘zlar	Turkiy tilning imkoniyatlarini ochib berish

“Nazm ul-javohir” asari o‘zida diniy-falsafiy g‘oyalarni tashib, axloqiy-didaktik mavzuda bo‘lgani bois unda qo‘llangan radiflarning aksariyati da’vat va chaqiriq ruhidadir. Chunonchi, asarning muqaddima qismidan o‘rin olgan 30 ruboiyning 26tasi, “Asosiy qism”dagi 268 ruboiyning 221 tasi, xotima qismidagi ruboiylarning har ikkisi – jami 249 ruboiy radifli bo‘lib, shundan 35 tasining radifi buyruq fe’llari bilan ifodalangan. Ulardan 33 tasi bo‘lishli, 2 tasi bo‘lishsiz shaklda. Xarakterli jihati, bu fe’llarning eng ko‘p qismini bilmoq va anglamogga da’vat etuvchi fe’llar tashkil etadi:

Kimni tilasang bilay, maqolin angla,
Aslin desang anglayin, fiolin angla,
Kirdorig’a boqib, asl holin angla,
Aslig’a dalil aning xisolin angla. [148]

Bu ruboiy Hazrat Alining “Dalilu asl il-mar’i fa’luhu” (“Kishi aslining hujjati uning fe’lidir”) hikmati mazmuniga muvofiq bitilgan bo‘lib, unda barcha davrlar uchun dolzarb bo‘lib keluvchi inson aslini anglash muammosi ko‘tariladi. Mazkur ruboiy qofiyasining o‘ziga xosligi unda **graduonimiya** (ma’noviy darajalanish) hodisasining kuzatilishidir. Umuman olganda, Navoiy turkiy til grammatikasini

mukammal darajada egallagan holda o'z asarlarida bu til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. Xususan, uning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning forsiy tildan ustun jihatlarini ko'rsatish maqsadida "yig'lamoq" fe'lining graduonimiyasini keltirganligi ma'lum (yig'lamsinmoq – ingramoq – singramoq – siqtamoq – inchkirmak – o'kurmoq – hoy-hoy yig'lamoq)²¹.

Yuqoridagi ruboiyda ham graduonimiya hodisasi fikrdagi darajalanishda ko'rinmoqda va buni yuzaga chiqarishda qofiyaga olingan so'zlarning xizmati kattadir. Ruboiyning ilk misrasida "Kimni bilishni istasang, uning aytayotgan so'zi (maqoli)ni angla" deyilmoqda. Darhaqiqat, kishining gap-so'zi uning qanday odam ekanligi haqida ilk taassurotni beradi. Ammo bir inson mohiyatini anglab yetish va u haqida xulosa chiqarish uchun bu yetarli emas. Shu bois "Kimningdir aslini bilmoqchi bo'lsang, uning fiolini angla", deydi buyuk shoir. "Fiol" so'zi arabcha "fe'l" so'zining ko'pligidir. Fe'l so'zi xulq-atvor (xarakter) ma'nosida ham qo'llanadi. Ammo uning asl lug'aviy ma'nosi "harakat", "ish-amal" demakdir. Navoiy talqiniga ko'ra, insonning tashqi harakat va amallari uning ichki dunyosidan – asliyatidan xabar beradi. Uchinchi misrada ushbu fikr yanada rivojlantiriladi: "*Kirdorig'a boqib, asl holin angla*". Ya'ni insonning ish-amallariga qarab uning asl holini anglamoq lozim. Bir qarashda, uchinchi misra va ikkinchi misra o'rtasida mazmuniy tafovut yo'qday tuyuladi. Ammo e'tibor bilan qarasak, mazkur misrada hol masalasida so'z bormoqda. Hol – tasavvuf ilmidagi eng muhim tushunchalardan bo'lib, u bandaning Alloh nazdida egallab turgan darajasini ifoda etadi. N.Komilov ayni masalaga maxsus to'xtalib, "Hol – Alloh inoyati, hosil etilgan martaba", deya izohlagan edi²². Ulamolarimiz ham bu xususda so'z yuritib: "Allohning huzuridagi maqomingni bilmoqchi bo'lsang, Alloh seni qaysi maqomga qo'yganiga qara. Agar sen zikr bilan mashg'ul bo'lsang, bilginki, Alloh seni eslayapti. Sen Qur'on o'qish bilan mashg'ul bo'lsang, bilginki, Alloh sen bilan gaplashmoqchi. Sen toat bilan mashg'ul bo'lsang, bilginki, Alloh seni o'ziga muqarrab qilyapti. Agar sen dunyo bilan mashg'ul bo'lsang, bilginki, Alloh seni o'zidan uzoqlashtiryapti. Agar sen odamlar bilan mashg'ul bo'lsang, bilginki, Alloh seni xor qilyapti. Agar sen duo bilan mashg'ul bo'lsang, bilginki, Alloh senga ne'mat ato qilmoqchi", deganlar. Demak, odamning asl holini – Alloh nazdidagi maqomini bilish uchun Alloh uni bu dunyoda qanday yumush bilan mashg'ul qilib qo'yganiga boqish kifoya ekan. To'rtinchi misrada fikr xulosalanadi: "*Aslig'a dalil aning xisolin angla*". Xisol – "xislat"ning ko'plik shakli bo'lib, misrada inson axloqi, sifatleri uning asliyatiga dalil-hujjat ekanligi ta'kidlanmoqda. Zero, kishining bajarayotgan amallari uning xulqiga ham ta'sir ko'rsatishi ayon haqiqatdir.

Ruboiy qofiyasida inson asliyatini ko'rsatuvchi jihatlar bosqichma-bosqich ko'rsatib berilgan: maqoli (insonning gap-so'zi) – fioli (ish-amallari) – asl holi (Alloh nazdidagi mavqe'i) – xisoli (xislatlari). "Angla" so'zining radif sifatida har bir misra yakunida takrorlanib kelishi esa o'quvchini ayni masala ustida chuqurroq tafakkur yuritishga undab, ifodani yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

²¹Qarang: Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн . МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 2000. 16-жилд. – Б.14-15.

²² Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр – Ўзбекистон, 2009. – Б.31.

“Nazm ul-javohir”dagi ba’zi ruboiylarda bayon etilayotgan bosh fikr radif sifatida keltiriladi:

*Avji sharaf uzra oftob o‘ldi hayo,
Bo‘stoni saodatqa sahob o‘ldi hayo,
Mazmumi xasoilg‘a hijob o‘ldi hayo,
El aybig‘a go‘yoki niqob o‘ldi hayo. [145]*

Hazrat Alining “Hayo ul-mar’i satruhu”, ya’ni “Kishining hayosi – uning pardasidir” hikmati mazmuniga muvofiq bitilgan bu ruboiyda hikmatdagi muxtasar mazmun poetik talqin etilgan. She’rning ilk misrasida hayo sharaf (ulug‘lik) osmoni uzra porlab turgan quyoshga o‘xshatilib, uning inson hayotini munavvar qilishiga urg‘u berilsa, ikkinchi misrada u saodat bo‘stoni ustidagi bulutga qiyos qilinib, u keltiruvchi foydaga e’tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, bo‘stonning soya-salqinligi, yoqimli havosi, unda gulu giyohlarning yashnashi, odamlarning bahra olishi bulut tufaylidir. Umuman, bulut detal-obrazi Navoiy ijodida insonlarga foyda keltirish ma’nosini ifoda etadi. Buni ijodkorning “Hayrat ul-abror” dostonining 13-maqolati “Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida” deb nomlanganidan ham bilish mumkin. Keyingi misralarda esa hayoning yomon (mazmum) xislatlar (xasoil)ga hijob, el aybiga niqob ekanligi aytiladi.

Ruboiy kompozitsiyasiga diqqat qaratsak, uni mazmunan ikki qismga bo‘lish mumkin. Avvalgi baytda shoir peyzaj unsurlari bo‘lmish “avj” (osmon), “oftob”, “bulut” kabi so‘zlarni qo‘llaydi. Ayni paytda bu so‘zlar “yuksaklik” belgisi asosida umumiy mazmuniy uyaga birlashadi. Bu tasodifiy emas. Hayoni tashbeh etishda bunday so‘zlardan foydalanish orqali muallif uning nechog‘lik ulug‘ fazilat ekanligini ko‘rsatib, uning o‘z sohibini yuksaltirishini uqtirmoqda. Ikkinchi baytda esa shoir “mazmum” (yomon), “ayb” so‘zlarini va ularga mos ravishda “hijob” va “niqob” so‘zlarini qo‘llagan. Bu orqali hayoning ikkinchi funksiyasi – uning aybu nuqsonlarni berkitishi ta’kidlanmoqda. Birinchi bayt uchun “oftob” va “sahob” so‘zlarining, ikkinchi bayt uchun esa “hijob” va “niqob” so‘zlarining qofiya qilinishi shoirning ana shu ijodiy niyatini to‘la amalga oshirishiga xizmat qilgan bo‘lsa, “hayo” so‘zining radif sifatida takrorlanib kelishi asarda ko‘tarilgan mavzuning muhimligini ko‘rsatib turibdi.

Zaminida “Kafo lil-hasudi min hasudihi sadaqa”, ya’ni “Hasadgo‘yga o‘z hasadi kifoyadir” hikmati turuvchi quyidagi ruboiyda shoir “hasadi” so‘zini radif sifatida qo‘llaydi:

*Har kimki hasud erur, sazodur hasadi,
Haqdin bo‘lg‘on yomon qazodur hasadi,
O‘z jonig‘a yetguncha balodur hasadi,
Bilkim, anga dardi bedavodur hasadi. [170]*

Odatda, “Nazm ul-javohir” ruboiylarida Hazrat Ali hikmatining mazmuni she’rning to‘rtinchi misrasida aks etar edi. Ammo ushbu ruboiyda masalaga boshqacha yondashilgan: hikmat mazmunini butun asar qatiga singdirib yuborish qasd etilgan. Bu maqsadga erishishda esa “hasadi” so‘zining radif o‘laroq har to‘rt misrada kelishi bosh omil bo‘lgan deb aytish mumkin. “Nazm ul-javohir”da bu kabi ruboiylar nisbatan kamchilikni tashkil etadi. She’rning birinchi misrasida “Kimki hasadgo‘y bo‘lsa, bu uning sazovorligidir”, deyiladi. Gap shundaki, Alloh insonning

fe'l-atvoriga, axloqiga qarab uni yo qaysidir ne'matga musharraf, yo qaysidir illatga giriftor etadi. Ana shu holat sazo, ya'ni sazovorlikdir. Demak, hasadgo'y inson uchun o'z axloqidagi hasadi uning sazosi – bir umrlik jazosi ekan. Ikkinchi misrada esa fikr bir pog'ona balandlatiladi: *“Haqdin bo'lg'on yomon qazodur hasadi”*. Matnga chuqurroq nazar tashlasak, “qazo” so'zining semiotik ochqich vazifasini o'tayotganiga guvoh bo'lamiz. Ruboiy diniy-tasavvufiy mazmunda bo'lgani bois unda mashhur tushuncha – qazo xususida so'z bormoqda. Qazoning asl mohiyatini bilish ruboiy mazmunining to'g'ri tushunilishiga sabab bo'ladi. “Qazo” tushunchasi ko'p hollarda “qadar” tushunchasi bilan yonma-yon tilga olinib, ular bir-birini taqozo qiladi. “Ulamolarimiz qazoni Alloh taoloning hamma narsalarni kelajakda qanday bo'lishini azaldan bilishi, qadar o'sha narsalarni Allohning azaliy ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishi deb ta'riflaydilar”²³. Ruboiyga qaytadigan bo'lsak, unda hasadning yomon kishi uchun Allohdan bo'lgan qazoyi qadar – taqdir ekanligi aytilmoqda. “Qazo”ning “sazo”dan farqi uning Alloh tomonidan qat'iy-o'zgarmas qilib bitib qo'yilganidir. Uchinchi misrada esa fikr yana bir daraja yuqorilaydi: *“O'z jonig'a yetguncha balodur hasadi”*. Demak, hasadchining hasadi umrbod uning ich-etini yemirib, azoblab, oxir-oqibat boshiga yetadi. So'nggi misrada esa fikr haddi a'losiga ko'tariladi: *“Bilki, anga dardi bedavodur hasadi”*. Yuqoridagi barcha misralar orqali hasad balosining inson uchun xavf-xatari xususida so'z borgan bo'lsa, so'nggi misrada eng yomon jihat hasadning dardi bedavo – davosiz dard ekanligi ta'kidlanmoqda. Ko'rinib turganidek, fikr misradan misraga o'sib bormoqda va undagi qofiya ham o'ziga xos graduonimiyani hosil qilyapti: sazo – qazo – balo – dardi bedavo. E'tibor berilsa, hayo haqidagi ruboiyda qofiyaga olingan so'zlarning barchasi ijobiy xarakterdagi so'zlar edi. Hasad masalasiga bag'ishlangan mazkur ruboiyda esa qofiya mutlaqo salbiy ma'noni ifodalagan. Bu esa Navoiy tomonidan istifoda etilgan qofiyalarning mavzuga to'la muvofiqligini ko'rsatadi.

Ruboiy matnining grammatik qurilishi ham e'tiborga molikdir: she'rning ilk misrasi “Kimki hasadgo'y bo'lsa...” (*“Har kimki hasud erur...”*) deb boshlanadi va barcha misralar tobe-hokim munosabati orqali shu jumlagi bog'lanadi. Ya'ni butun asar mazmuni bosh timsol hasadgo'y obrazi atrofida birlashmoqda. Bu esa retsipient tafakkurida kompleks tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi.

“Nazm ul-javohir” asari sa'j, tarse', izdivoj, e'not, muassasa, zulqofiyatayn, tajnisli qofiya kabi qofiya san'atlari bilan birgalikda tanosubli qofiya, tazodli qofiya, ishtiqoqli qofiya va takrirli qofiya kabi o'ziga xos badiiyat vositalariga ham boyki, bu Alisher Navoiyning asar badiiyatini oshirishdagi poetik mahoratini ko'rsatadi.

XULOSA

1. Navoiy o'zigacha yashab ijod qilgan ustoz adiblarning boy adabiy merosini chuqur o'zlashtirgan holda mumtoz adabiyotimiz xazinasini yangicha mazmun va ruh, betakror uslub va janrlar bilan boyitdi. Xususan, uning “Nazm ul-javohir” asari ham mutafakkir shoir novatorligining o'ziga xos badiiy ko'zgusidir. Avvalo, bu asar

²³ <https://qadriyat.uz/suhbatlar/374-qazoyi-qadarga-ishonish-va-Allohga-tavakkul/> Toshkent shahridagi “Imom Buxoriy” jome masjidi imom-xatibi Zayniddin Eshonqulov bilan suhbat.

Sharqda mashhur bo'lgan Hazrat Ali hikmatlarini she'rga solish an'anasi asosida turkiy adabiyotda yaratilgan ilk va yagona asar ekanligi bilan qimmatlidir. Unda buyuk xalifaning purma'no fikrlari daho shoirning mumtoz sharhlari, teran mushohadalari, hayotiy dalillari va badiiy tasvirlari bilan mukammal uyg'unlikda taqdim etilgan. Ham shaklan, ham mazmunan barkamol bo'lgan bu asarni o'qish orqali kitobxon o'z ma'naviy dunyosi uchun muhim bo'lgan haqiqatlarni cheksiz zavq bilan kashf etadi. Ushbu xususiyatlariga ko'ra "Nazm ul-javohir"ni original asar sifatida baholash o'rinlidir.

2. "Nazm ul-javohir" asari hozirga qadar uch marta nashr qilingan va ilmiy-tanqidiy matni tuzilganiga qaramay, asar nashrlari turli darajadagi kamchiliklardan xoli emas. Tadqiqotimiz natijasida ushbu nuqsonlar, asosan, nashr etilgan manbalardagi arabiy ifodalar – Qur'oni karim oyatlari, hadisi sharif va hikmatlarning tabdili bilan bog'liqligi aniqlandi. Asar matnidagi bu chalkashliklar esa uning g'oyaviy-badiiy tahlilini amalga oshirishga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu sababli "Nazm ul-javohir"ning ilmiy-tanqidiy matniga ilova tarzida asarning joriy yozuvdagi matnining ham mukammal shaklini ishlab chiqish va nashr etish navoiyshunoslik sohasidagi ustuvor vazifalardan biridir.

3. "Nazm ul-javohir" asarida Alisher Navoiyning teran tafakkuri va ma'naviy olami aks etgan bo'lib, asar mutolaasi muallifning dunyoqarashi, g'oyaviy-estetik qarashlari, hayotiy ideali va ijodiy pozitsiyasini chuqur idrok etish va his qilish imkonini beradi. Mazkur asarda har bir inson uchun qadriyatga aylanishi lozim bo'lgan muhim tushunchalar o'zining ziddi bilan parallel tarzda izohlanganki, bu mazkur masalalar mohiyatiga teranroq nazar solishga, tafakkur va tadabbur qilishga undaydi. Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" asari yaralishi jarayonida egallagan hikmatlarni badiiy talqin etish tajribasining manfaatlari adib umrining so'ngida yaralgan "Mahbub ul-qulub" asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarida ham o'z ifodasini topgan.

4. "Nazm ul-javohir" asaridan o'rin olgan ruboiylarning ko'pchiligi "sahli mumtane'" uslubida bitilgan bo'lib, ularda anglash murakkab bo'lgan masalalar oddiy kitobxon ham o'qib, tushuna olishi uchun sodda va ravon tarzda yoritilgan. Biroq undan shunday ruboiylar ham o'rin olganki, o'quvchi bir qarashdayoq undagi ma'no qatlamini anglay olmaydi. Sababi, ularda Navoiy poetikasiga xos bo'lgan maxsus uslub, tasvir usullari, majoz va ramzlar olami aks etgan. Bunday ruboiylar tahlili tadqiqotchi zimmasiga nafaqat zohiriy bilimlar, balki kashfu hol singari botiniy bilimlarga ega bo'lish mas'uliyatini ham yuklaydi.

5. Mazkur asarda Alisher Navoiyning nafaqat ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy-ta'limiy, balki adabiy-estetik qarashlari ham o'z aksini topgan. Xususan, unda badiiy so'z mavzusi va mavqei yuzasidan shunday talqin va xulosalar taqdim etilganki, mazkur qarashlar ulug' mutafakkirning boshqa asarlarida uchramaydi va uning adabiy-estetik qarashlarini to'ldiradi. Jumladan, Navoiy so'zning shakl va ma'no nuqtai nazaridan uch darajaga bo'linishini e'tirof etadi: a'lo (oliy), avsat (o'rta) va adno (quyi) darajalar.

6. Alisher Navoiyning asar muqaddimasida o'zining poetik niyatini amalga oshirishda nafaqat nazmda, balki nasrda ham badiiy san'atlardan keng foydalangan. Xususan, ruju', iyhom, kinoya, baroati istehlol, tansiq us-sifot, kitobat, ta'rix kabi

nazmga xoslangan badiiy san'atlarni nasrda ham yuksak san'atkorlik bilan qo'llagan va bu orqali badiiy nasrning poetik imkoniyatlarini kengaytirgan.

7. "Nazm ul-javohir" asarida badiiy san'atlardan asar kompozitsiyasiga muvofiq ravishda istifoda etilgan. Xususan, asar muqaddimasidan o'rin olgan ruboiylar ko'pincha tavsifiy xarakterda bo'lgani bois ularda o'xshatish asosidagi she'riy san'atlardan keng foydalanilganini ko'rsak, asosiy qismdagi ruboiylarning barchasida Hazrat Ali hikmatlarining mazmuniga muvofiq ravishda insho san'atining amr va nahiy turidan foydalanilganiga guvoh bo'lamiz. Asar xotimasida esa tamanni' san'ati orqali munojot ruhi ifodalangan bo'lib, bu usul Navoiyning boshqa asarlari, jumladan, "Xamsa" dostonlari nihoyasida uchrashi uning Navoiy poetikasining o'ziga xosliklaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

8. "Nazm ul-javohir" asari ruboiylari hazaj bahrining 4, keltirilgan vaznlarning variantdoshlarini qo'shib hisoblaganda 14 o'lchovida yozilgan. Axrab tarmog'ida bitilgan ruboiylar "Nazm ul-javohir" asosini tashkil etib, asardagi 232 ruboiy shu tarmoqqa mansubdir. Shuningdek, 68 ruboiyda axram tarmog'i qo'llangan. Asarda, asosan, axrab tarmog'i vaznlaridan foydalanilishi undagi ruboiylar zamiridagi pand-nasihatlarini kishi qulog'iga yoqadigan, qalbiga muloyim o'rnashadigan, yodida oson qoladigan tarzda ifodalanishini ta'minlagan. Axram tarmog'iga murojaat qilinishi orqali esa ifodalanayotgan fikrga alohida urg'u berilgan. Bir tarmoq doirasida ritmik variantlarning almashinuvi ko'proq shaklga xos hodisa bo'lib, u mazmunda deyarli ahamiyat kasb etmaydi. Bunda ikki xil ritmning bir ruboiyda qo'llanishi uning xushohangligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq tarmoqlararo ritmik variatsiyaning qo'llanishi ham shaklga, ham mazmunga birday aloqadordir. Sababi axrab va axram tarmoqlariga xos vaznlardan hosil bo'luvchi ohanglar bir-biridan sezilarli farq qiladi. Ohangdagi o'zgarish esa shoir ko'zda tutgan ijodiy niyatdan kelib chiqqan holda, o'quvchi fikrini asosiy masalaga qaratishga, ifodalanayotgan fikrni alohida ta'kidlashga, ruboiy mazmunini anglatuvchi eng asosiy tushunchaga urg'u berishga xizmat qiladi. "Nazm ul-javohir" asaridagi axramli misralarda fikr urg'usining ifodalanishini quyidagi tiplarga ajratish mumkin: 1)tezis: sharh; 2)binar oppozitsiya; 3)fikr – xulosa (fikr – sintez va fikr – intertekstual xulosa).

9. "Nazm ul-javohir" asarining qofiya xususiyatlarini tadqiq etish natijasida unda quyidagi o'ziga xos jihatlar mavjud ekanligi aniqlandi:

a) "Nazm ul-javohir" asari ruboiylarida ko'p hollarda hikmatning kesimi ruboiyning qofiyasi vazifasini bajarib kelgan. Bundan ko'zda tutilgan maqsad ruboiy qatiga berkitilgan hikmatdagi bosh g'oyaga fikr urg'usini berish va o'quvchini muayyan harakatga undashdir;

b) ayrim hollarda hikmatli so'zda ega vazifasini bajarib kelgan so'z ruboiy uchun qofiya sifatida tanlangan va bu o'quvchi e'tiborini ruboiyda aks etgan bosh g'oyaga qaratishga xizmat qiladi;

c) asar uchun tanlangan hikmatlarda ko'pincha ichki qofiya kuzatilgani tufayli ular asosida bitilgan ruboiylarning qofiyasida ham ko'p hollarda hikmatning ana shu xususiyatidan foydalanilgan. Bu esa ruboiy va hikmat o'rtasida ichki yaqinlik – intertekstual aloqani kuchaytirishga xizmat qilgan;

d) “Nazm ul-javohir” qofiyalarida buyuk ijodkor tomonidan forsiy qofiyadosh soʻzlar tizimiga mahorat bilan singdirgan turkiy qofiyadosh soʻzlar ham keng istifoda etilgan;

e) asar qofiyasida tarseʼ, izdivoj, eʼnot, muassasa, zulqofiyatayn, tajnisli qofiya kabi anʼanaviy qofiya sanʼatlari bilan birgalikda tanosubli qofiya, tazodli qofiya, ishtiyoqli qofiya va takrirli qofiya kabi oʻziga xos badiiy sanʼatlardan ham mohirona foydalanilgan.

“Nazm ul-javohir” asarida Alisher Navoiy islom dinining tub mohiyatini tashkil qiluvchi pokiza axloq, yuksak maʼnaviyat va ezgulikka daʼvat etadigan umrboqiy gʻoyalarni musarraʼ ruboiylar shaklida taqdim etgan. Teran maʼrifiy mazmun va goʻzal poetik shakl uygʻunligida yaratilgan mazkur asar xalqimiz maʼnaviyatini yuksaltirib, adabiy-estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilmoqdaki, bu uning adabiyotimiz xazinasida nechogʻlik qimmatli manba ekanini koʻrsatadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL № DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AWARDED
ACADEMIC DEGREES AT FERGANA STATE UNIVERSITY**

KOKAND STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

KHUJAEVA SHOIRAKHON BAKHTIYOR KIZI

THE POETICS OF ALISHER NAVOI'S WORK "NAZM UL-JAVOHIR"

10.00.02 – Uzbek literature

**DISSERTATION ABSTRACT FOR THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN
PHILOLOGICAL SCIENCES**

Fergana – 2023

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in philological sciences is registered in the Higher Attestation Commission with the number B2018.3. PhD/Fil507.

The dissertation was completed at Kokand state pedagogical institute.

The abstract of the dissertation is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of Fergana State University www.fdu.uz and on the informational-educational portal "ZiyoNet" www.ziynet.uz.

Supervisor:

Zohidova Durdona Lutfullaevna
candidate of philological sciences,
associate professor

Official Opponents:

Juraev Habibullo Abdusalomovich
doctor of philological sciences,
professor

Jabborov Nurbay Abdulhakimovich
doctor of philological sciences,
professor

Leading organization:

Andijon state universitete

The defense of the dissertation will be held on 14.10 2023, at 14:00 at a meeting of Academic Council DSc.03/30.12.2020.Fil.05.02 under Fergana State University. (Address: 105, B.Marg'inoniy street, Fergana, 100151. Tel: (99873) 244-46-02; fax: (873) 244-44-02; fax: (+993873) 244-44-01; e-mail: fardu_info@mail.uz).

The dissertation is available in the Information Resource center of Fergana State University (registered under № 303). Address: 19, Murabbiylar street, Fergana, 100151. Tel: (99873) 244-71-28; e-mail: fardu_info@mail.uz.

The abstract of the dissertation is distributed on 30.09 2023.
(Digital register protocol № 28 dated 30.09 2023.)



Sh.M.Iskandarova
Chairman of the scientific council
awarding scientific degrees, doctor of
philological science, professor

M.T.Zokirov
Scientific secretary of the scientific
council awarding scientific degrees,
candidate of philological sciences,
professor

Z.B.Qobilova
Chairman of the scientific seminar
under the scientific council awarding
scientific degrees, doctor of
philological sciences, professor

INTRODUCTION (annotation of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD))

The actuality and significance of the dissertation work. In the world literary studies, the examination of the literary-aesthetic essence and nature of a sample of artistic creation in the context of the historical-cultural factors that formed the worldview of the author of the work is considered one of the important methodological principles. In particular, studying issues related to the poetics of the work, taking into account factors such as historical need, succession, and intertextual communication, is one of the criteria of globalized scientific-theoretical thinking. From this point of view, studying the essence and artistry of the works of thinkers who made a special contribution to the creation of the image of world civilization and rose to the status of a national phenomenon within the framework of their literature, based on theoretically improving methods, new methods of analysis and interpretation, will provide significant scientific benefits and results.

It is important to apply the advanced experiences of world literary studies in the field of analysing literary phenomena from the perspective of historical poetics in the diachronic aspect to national literature, in particular, to the study of the works of Alisher Navoi, who is the supreme example of our classic literature.

As a result of the national independence, as in all fields, the doors of new opportunities were opened in the field of Navoi studies. In particular, the great thinker's lyrics, "Khamsa" epics, scientific Risolas, religious-mystical, enlightened-educational and memoir works have been studied based on the basis of the author's worldview. "Today, when our beloved country is entering a completely new stage of development based on the main principle of "From national revival to national develop" and is creating the foundations of a new renaissance - the third renaissance, it is more important than ever to study and popularize Uzbek literature and culture in the example of Alisher Navoi's beautiful literary legacy is gaining importance"¹. Discovering the historical-functional possibilities, the power of artistic impact, the enlightened-educational power of Alisher Navoi's works in connection with the needs of the new age is the priority task for today's Navoi scholars. Alisher Navoi, who created each of his works as a high poetic embodiment of his views on existence and man, leads to important scientific truths. After all, the thinker considered artistic creativity as an activity of spiritual-aesthetic impact on the reader through realized divine truths and raised this view to the level of a creative credo for himself. These thoughts are also fully related to Navoi's work "Nazm ul-javohir" which was created based on the literary and aesthetic principle of "Nukta su yanglig' eritur toshni, Topsa haqiqat o'tidin choshni". This work is the first example in Turkish poetry of the tradition of artisticizing the hikmah of Hazrat Ali in the literature of the muslim East, and at the same time, analysing it as an artistic reality that complements Navoi's conceptual views about the perfect man, researching its creative history, its

¹ Decision No. PQ-4865 of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev dated October 19, 2020 "On the wide celebration of the 580th anniversary of the birth of the great poet and thinker Alisher Navoi". <https://lex.uz/docs/5054929>

place in the rubai genre, and its poetic peculiarities are the subject of the dissertation for modern literature determines its importance.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 of January 28, 2022 “On the development strategy of new Uzbekistan for 2022-2026”, No. PF-4947 of February 7, 2017 “On the Strategy of Actions for further development of the republic of Uzbekistan”, Decree No. PQ-2789 of February 17, 2017 “On measures to further improve the activities of the academy of sciences, organization, management and financing of scientific research”, No. PQ-3271 of September 13, 2017 “Book on the program of comprehensive measures to develop the system of publishing and distribution of products, increase and promote book reading and reading culture”, as well as other regulatory and legal documents related to this activity, this dissertation research is of a certain degree of service does.

The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technology of the republic. This study was carried out within the framework of the priority direction of republican science and technology development as 1. “Spiritual-ethical and cultural development of a democratic and legal society, development of innovative economy”

The scope of study of the problem. The first source of information about “Nazm ul-javohir” is the work “Makorim ul-akhloq” by Khondamir. It contains important information about the history of creation of the work¹.

A number of scholars in world literature have also reacted to “Nazm ul-javohir” to a certain extent by researching Navoi’s literary heritage. For example, instead of the preface of Navoi’s work “Muhokamat ul-lugatayn” published in Istanbul in 1861, the translator of the French Embassy M.Belen published an article about the poet and his work published in “Azia” journal in 1860. In this, Belen focused on “Nazm ul-javohir” among other works of Navoi, gives brief information about the general nature of the work, the date of writing, and to whom it is dedicated². At the same time, E.E.Bertels, who conducted special research on the history of Eastern literature, I.Yu.Krachkovski, I.M.Filshtinski, B.Ya.Shidfar, K.T.Osipova, N.A.Akilova, who studied Arabic poetry and Turkish scientists Yusuf Altinişik, Sed Arif Ahmadoglu, Alican Güzel expressed their opinions about “Nazm ul-javohir”³.

“Nazm ul-javohir” occupies a special place among Alisher Navoi’s moral and didactic works. For this reason, many Uzbek literary experts have expressed their

¹ Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – Р.50.

² Look: Навоий ва адабий таъсир масалалари. Compiler and responsible editors: С.Ғаниева ва А.Абдуғафуров. – Тошкент: Фан, 1968. – Р.344.

